
Prokuror nazorati. Qishloq xo'jaligini takomillashtirish

Farg'ona viloyatida qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tadbirlar sohaga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, qaror va farmonlar, boshqa me'yoriy xujjatlar asosida olib borilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2017 yil 8 avgustdagi 3182-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Quvasoy, Farg'ona shaharlari va 14 ta tumanda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tadbirlar 4 ta sektor rahbarlari hududlari bo'yicha tashkil etilmoqda.

Xususan, 2018 yil hosilini etishtirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha 2017 yil kuz oylari va 2018 yilning 1-choragi uchun belgilangan rejalar o'tgan yillarga qaraganda yuqori samara berganini ta'kidlash lozim. Jumladan, viloyatda 2018 yil hosili uchun 2962 ta fermer xo'jaligida sho'r yuvishga er tayyorlash ishlarini tashkil etish va I-II sho'r yuvish ishlarini 55397 gektarda amalga oshirish belgilangan. Bu vazifalarni o'z muddatlarida bajarilishini tizimli tashkil qilish maqsadida kunlik grafiklar ishlab chiqilib, barcha tumanlar, sug'orish shtablari, otryadlar va fermer xo'jalikari ana shu asosda ish yuritib kelmoqdalar.

Joriy yilning 2 yanvar holatiga viloyatdagi rejalashtirilgan 54853 gektar maydonda sho'r yuvishga yer tayyorlash ishlari to'liq bajarildi. Ushbu ishlarni bajarishga 80 ta pol olish moslamalari va texnikalar jalb etildi. Pol olingan maydonlarda peshma-pesh sho'r yuvish ishlarining tizimli bajarilishini ta'minlash maqsadida 12 ta tuman va 82 ta suv iste'molchilar uyushmalaridagi sug'orish shtablarida hamda 98 ta sug'orish otryadlarida 2760 nafardan ortiq suv xo'jaligi va suv iste'molchilar uyushmasi xodimlari, 5 ming nafardan ortiq fermer xo'jaliklari suvchilari ma'suliyatini oshirishga e'tibor qaratildi.

Sho'r yuvish ishlari 2 yanvar holatiga ko'ra 68 foizga bajarildi. Kunlik sho'r yuvish 2300 gektar atrofida amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlarni bajarishga 67 m³/sek suv ajratilib, 6,5 ming nafar suvchilar jalb qilinmoqda.

Sho'r yuvishga er tayyorlash, sho'r yuvish tadbirlarida qatnashayotgan suv xo'jaligi, suv iste'molchilar uyushmasi va fermer xo'jaliklari suvchilarining 3000 nafariga o'tgan yilning 1-3 dekabr kunlari kiyim-boshlar tarqatildi. 2017 yilning 7, 11, 12 dekabr kunlari viloyatning barcha shahar va tumanlarida irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini tozalash, ulardagi inshootlarni ta'mirlash, kanal va ariqlarni obodonlashtirish, davlat va xo'jalik ichki nasos agregatlarini ta'mirlash bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazildi.

Kuzgi-qishki mavsum Dasturiga asosan xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlarini tozalash 538 km.dan mavsumiy rejaga nisbatan 65 foizga, gidrotexnik inshootlar va gidropostlarni ta'mirlash rejasi esa 2892 dona bo'lib, mavsumiy rejaga nisbatan 63 foizga, xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini tozalash mavsumiy rejaga nisbatan 62 foizga, gidrotexnik inshootlar va gidropostlarni ta'mirlash esa 66 foizga bajarildi.

Davlat hisobidagi nasos agregatlarini ta'mirlash 54 foizga, suv iste'molchilar uyushmasi va fermer xo'jaliklari hisobidagi nasos agregatlarini ta'mirlash ishlari 53 foizga bajarildi.

Belgilangan grafiklar asosida joylarda hududlar bo'yicha issiq ovqatlar tashkil qilinib, kamida 50-100 nafar ishchilardan iborat hasharlar tashkil qilinmoqda.

2018 yil hosili uchun 109200 gektar maydonda ekilgan kuzgi boshqoli don maydonlarida 2018 yil 1 yanvardan boshlab sharbat usulida sug'orish grafiklari ishlab chiqildi. Bugungi kunda kunlik 2,0 ming gektar atrofida sug'orish ishlari tashkil etilmoqda.

Bahorgi dala ishlarini ado etishda bir qator imkoniyatlar ishga solindi. Xususan, viloyatda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qishloq xo'jaligi agregatlari, seyalkalar, chopiq traktori va kultivatorlarni 1 fevralgacha, don o'rish kombaynlarni 10 maygacha ta'mirdan chiqarish va ishchi guruhiga taqdim etish bo'yicha barcha choralar ko'rildi.

Belgilangan 28 ta texnikalarni yig'ish markazlari va 45 ta ustaxonalarga 2018 yil bahorgi mavsumda qatnashadigan 678 dona chigit ekish seyalkalari, 1965 dona chopiq traktorlari va kultivatorlar, 810 dona transport traktorlari, 300 dona don o'rish kombaynlari hamda 1810 donadan ortiq mexanizmlarni yig'ish bo'yicha dislokatsiya ishlab chiqildi hamda ushbu texnikalar ta'mirlash markazlariga to'liq olib kelindi.

Bahorgi dala ishlarida qatnashadigan texnikalarni ta'mirlash uchun talab etiladigan 4861,1 mln. so'm mablag'larning 1445,4 mln. so'mi ehtiyot qism va boshqa resurslar uchun o'tkazib berildi. Bugungi kungacha 1940 dona chopiq traktorlari, 1940 dona kultivatorlar, 803 dona chigit ekish seyalkalari va 160

dona don o'rish kombaynlari ta'mirdan chiqarildi. SHuningdek, texnika ta'mirlashda ishtirok etayotgan 350 nafar chilangarlarga 500 ming so'mdan ish haqlari, mexanizatorlarga 1 qopdan un va 10 kg.dan o'simlik yog'i tarqatib berildi.

Zang kasalligi va begona o'tlarga qarshi kimyoviy preparatlar zaxirasini yaratish bo'yicha joriy yilda 107 ming 228 gektar maydonlarda begona o'tlarga, 163 ming 810 gektar maydonlarda zang kasalligiga va 83 ming 253 gektar erda zararkunanda hashoratlarga qarshi kimyoviy ishlov berish rejalashtirilgan. SHundan kelib chiqib, 12 ming 526 gektar erda etarli gerbitsidlar, 41 ming 933 gektar maydonda fungitsidlar, jumladan, 1776 gektarda al'to-super, 24 ming 196 gektarda superfar, 15 ming 970 gektarda duazol preparatlari zaxirasi yaratildi. Zang kasalligining oldini olish va alomatlarini o'z vaqtida aniqlash bo'yicha 3 ta guruhlar tashkil etildi. Ular tomonidan har kuni 3 tadan tumanlarda kuzatuv-nazorat ishlari olib borilmoqda.

Viloyatda 2018 yilgi pilla etishtirish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, ozuqa bazasini mustahkamlash ishlari Prezidentimizning 2017 yil 29 martdagi "O'zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori asosida olib borilmoqda.

Xususan joriy yilda viloyat bo'yicha 30 ming 200 quti ipak qurti parvarish qilinib, 1650 tonna pilla xom ashyosini topshirish rejasi belgilangan. Bugungi kunga qadar 21 ming 140 quti ipak qurtidan 1178 tonna pilla etishtirish bo'yicha shartnomalar tuzildi. SHuningdek, 20 ming 118 nafar qurt boquvchilar va kasanachilar o'rtasida ichki shartnomalar tuzildi.

Qurt boquvchilarga etkazib berish uchun 7625 mln.so'mlik moddiy-texnik resurslar yaratildi. Masalan, 44 ming dona quticha, 56 tonna to'shama qog'oz, 88 ming dona termometr va boshqa kerakli jihozlar, qurtlarni kichik yoshda turli kasaliklardan saqlash maqsadida 40 tonna farmalin, tut ozuqasini tejash, sifatli pilla xom ashyosini etishtirish maqsadida barcha tumanlarda pylonka ostida qurt boqish tashkil etildi.

Ipak qurti ozuqa ba'zasini mustahkamlash maqsadida, joriy yilda viloyatdagi jami 70 gektar maydonlarda tut plantatsiyalarini tashkil etish rejasi belgilangan bo'lib, amalda 27 gektar maydonlarda tut plantatsiyalari tashkil etildi. Shuningdek, joriy yilda shahar va tumanlarda 1 million dona, shundan kuz oylarida 950 ming dona tut ko'chatlarini ekish rejasi belgilangan.

Nuriddin O'RINBOEV,

O'zbekiston Respublikasi Bosh

prokuraturasi 11-boshqarma katta prokurori.

2018-03-03 11:02:27